

HALIMA XUDOYBERDIYEVA LIRIKASIDA BUYRUQ GAPLAR KONSTRUKSIYASI

O'g'lnor Ro'ziyeva

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi
ijod maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Halima Xudoyberdiyevaning so'z qo'llash mahorati, she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari bir necha she'rlarini tahlilga tortish orqali atroflicha o'rganib chiqilgan. Halima Xudoyberdiyeva ijodida voqealanuvchi leksik, sintaktik vositalarning lingvopoetik tadqiqi masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, buyruq gaplar, lirik subyekt, gedonistik xususiyat, individual estetika, kinoya, stilistik aspekt

Abstract. In this article, Halima Khudoyberdiyeva's ability to use words, linguopoetic features of her poems are studied in detail by analyzing some of her poems. The issue of linguopoetic research of lexical and syntactic tools in Halima Khudoyberdiyeva's work illuminated.

Key words: linguopoetics, command sentences, lyric subject, hedonistic feature, individual aesthetics, irony, stylistic aspect

Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetik yondashuvning tobora rivojlanib borayotganligi badiiy matnni tashkil qiluvchi lingvistik birliklarni qaytadan ko'rib chiqish imkonini yaratdi. Negaki har qanday til birligi badiiy matnda muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda tamoman o'ziga xos poetik qonuniyatlarni hosil qilishi mumkin. Bu borada tilshunos M.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Badiiy matnni to'g'ri filologik talqin, tahlil va idrok etish, undan maksimal estetik zavq va axborot olish malakasiga erishishda lingvopoetika asosiy omildir".¹ Darhaqiqat, muayyan tilning boyligi, badiiy imkoniyatlar doirasining sarhad bilmasligi aynan badiiy matnda akslanadi. Tilning konnotativ vazifasini idrok qila olgan, uning boy ifoda imkoniyatlaridan mohirona foydalangan hamda ularni ijod jarayoniga mahorat bilan tatbiq etgan ijodkor, demakki, o'z ona tili oldida mas'uliyatli vazifani ado etgan bo'ladi. She'riyatning gedonistik (huzur berish, zavqlantirish) xususiyatining namoyon bo'lishi shoirning so'zni qo'llay olish mahoratiga, o'ziga xos o'zgacha uslubiga, hayotiy, jamiyatning asosiy rivojlantiruvchi nuqtasi bo'lmish falsafiy dunyoqarashini qay yo'sinda ifodalay

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T., Fan, 2008. B-27.

olishiga bog'liq jihatlarida namoyon bo'la oladi. Badiiy me'yorlarga asoslangan poeziyada voqelikning deyarli tasvirlanmasligi, epik elementlarning qo'llanmasligi, she'rning lirik subyekt (lirik qahramon) kechinma va sezimlarining soyasida yuzaga kelishi ijodkordan juda katta mahoratni talab qiladi. Bu borada shoirdan mahoratlirog'i topilmasa kerak. Ana shu nuqtayi nazarni inobatga olib ijod ahli ko'ngil odami bo'lishning, ruhiyatga qorishib ketishning asosiy vositasi so'z ekanligini, badiiy matn ekanligini amalda ko'rsata oladi.

Mana shunday ko'ngil odami hisoblangan Halima Xudoyberdiyeva lirikasida shoiraning bir inson, bir o'zbek ayoli sifatidagi adabiy-estetik konsepsiyasi yaqqollanib turadiki, bundan muazzam she'riyat sehrini his qilmoq, o'qimoq va uqmoq baxtidan suyunmoq imkoni bor. Shoira bir safar "*Sen so'rama, men ham aytmayin, Kuragimning singanini qars*" deb ozorlansa, yana boshqa safar "*Tug' asragan yuragim dodlar, Qo'llarimni qasos qonlagan*" deya bong uradi. Bunday satrlarda ritmik-intonatsion xususiyatning bo'rtiqligi bilan bir qatorda dilida olov gurullagan aytimchining ko'ngli yaqqollanadi. Ichimizdan bir tozarish, billurlanish sezgancha mutolaani davomiy qilamiz: "*Barin ichga yutib, ko'ksimga mushtlab, Men yonib ketyapman, yonib ketyapman*", "*Quyoshni ko'tarib yurib yiqilsang, Bearmon ketarding*", "*Kuyib yozganimni quyulgan yoshim Ko'mib, yuvib ketdi, qog'ozda xat yo'q...*" kabi badiiy salmog'i baquvvat misralar ayol qalbining harorati va kuyunchakligi ifodasidir. Shunday ekan, bir buyuk ayol qalbini anglamoq, o'qimoq va uqmoq, ta'sirlanib sehrlanmoq uchun shoiraning "Issiq qor", "To'marisning aytgani", "Yo'ldadirman", "Buyuk qushlar", "Osoyishta sham" to'plamlarini bot-bot qo'lga olaveramiz, goh ko'nglimiz huzurlanib, goho o'ksinib, goho ko'zlarimiz nomsiz tuyg'ular qurshovidan chaqnaq, goh esa yoshlanib she'riyatga oshno bo'laveramiz. Munaqqid Ozod Sharofiddinov o'zining bir maqolasida Halima Xudoyberdiyeva haqida shunday deydi: "Halimaning she'riyati bizni bedorlikka chaqiradi, vijdonimizni uyg'otadi. Vujudimizdan loqaydlik balosini siqib chiqarishga yordam beradi. Bu she'riyat ko'p yillar mobaynida kirlangan ruhiyatimizni poklashga, butlashga xizmat qiladi"². Halimaxonimning aksariyat she'rlari mazmunidan hamisha har narsada lider bo'lishga intilish, har bir yumushni, tuyg'uni maromiga **yetkazib** bajarish va his qilishni istash kuchliligini tuyamiz. Ijodkorning "O'n to'rt yoshli qizcha" nomli she'rida ham qizchanning o'yin uchun o'rtoqlari oldiga shoshib pala-partish o'sma qo'yayotganini kuzatar ekan, uning o'rnida o'zi bo'lib qolishni qattiq istaydi va "*Uni qo'yar edim o'rniga qo'yib, O'n to'rt yoshli paytim qaytsaydi qani*" deya armonlanadi. **Yoki** sevgi maktubini shoshganidan hafsala qilmay bitayotgan qizni kuzatib, "**Ko'z** yoshimdan siyoh qilar edim quyuuq, Kiprik bilan yozib bitkazar edim" deb o'tli maktubini ko'zlari qiyiq yigitga pinhona **yetkazishni** juda xohlaydi. Yuqoridagi satrlarda she'r ixlosmandi shoiraning yoniq qalbini, uning botiniy tiynatining

² H. Xudoyberdiyeva. Tanlangan asarlar. Sharq. T. – 2020. Bet-14

shiddatini aniq his qiladi. O'sma qo'ysang xayollanib emas, jon-diling bilan qo'y, sevgi maktubingni behafsala emas, qaynoq muhabbat bilan yoz, alla aytsang rangsiz va jarangsiz emas, yuragingda boring bilan ayt deb bong uradi;

*O'ringizga meni qo'ysangiz edi,
Bir alla aytardim, samo charaqlardi,
Yulduz uyqusiga tushardi o'g'ri...*

Ha, agar u alla aytsaydi, nimalarni xayol qilib, dildan kuylardi, o'g'lining xuddi otasiga o'xshab voyaga **yetganini**, sog'intirib safarlarga ketganini tasavvur qilib kuylagan bo'lardi, hech bir ishni shunchaki qilmasdi!

Har qanday **yetuk** badiiy asarda ichki o'ziga xoslik, tashqi xilma-xillik, individual estetika, faqat o'zigagina tegishli belgi va aksesuarlar galereyasi mavjud bo'ladi. Mana shu go'zallik tahlili, mana shu uslub tahlili poetika deb qaraladiki, uning vazifasi asardagi estetikaning, zavqning, go'zallikning, bir so'z bilan aytganda ,badiiyatning dozasini aniqlashdir. Ta'kidlash zarurki, badiiy asar tahlilida asosiy qurol bu taassurotdir. Ana shu taassurotni mantiqiy va matniy analiz qilish, asoslash, ilmiy bilish obyektini yaratish asar poetikasini hosil qiladi. Buni esa lirik, epik yoki dramatik matndagi leksik qatlam, uslubiy figuralar yuzaga keltiradi. Badiiy matn tahliliga lingvopoetik jihatdan yondashish ham adabiy, ham lingvistik nuqtayi nazardan obyektiv va aniq tahliliy xulosalar yaratish imkonini beradi. Matnning asosiy tahlil parametrlari sifatida, avvalo, ijodkor nutqidagi lisoniy o'ziga xosliklar va tasvirlanayotgan voqelikka muallifning munosabat kategoriyasini ko'rsatish mumkin. Halima Xudoyberdieva lirikasida shunday bir o'ziga xoslikni kuzatish mumkinki, bu so'roq va buyruq konstruksiyalarining she'riy matnda tutgan o'rni bilan bog'liqdir. Bunday sintaktik konstruksiyalar shoiraning lirik nutqini individiallashtirgan va ijodkorning stereotipini (dunyoqarashini) yanada tipiklashtirishga xizmat qilgan:

*Qasos havolarin ochlik bilan yut,
Garchand sitorasan, nafis ayolsan.
Mening gumonim yo'q ketmog'iga o't,
Sen agar "O't ketsin" deya qo'zg'olsang!*

She'rda ishlatilgan buyruq gap orqali kitobxon oddiygina tavsiyani, taklifni yoki nasihatni emas, kuchli ohangdagi chorlovni anglaydi, his qiladi. Lingvistik jihatdan buyruq gaplar grammatik-intonatsion xususiyatlariga ko'ra, avvalo, buyruq va da'vat ma'nosini ifodalaydi, bundan tashqari, iltimos, iltijo, talab, ruxsat, taqiqlash, chaqiriq, do'q, ogohlantirish, maslahat, nasihat, taklif, yupatish, kabi ma'no ottenkalarini ham tashishi bilan xarakterlidir. Ammo shoira buyruq gaplarning qat'iy buyruq turini nisbatan ko'proq qo'llaydi va hissiy effekt yaratishga muvaffaq bo'ladi. Bunday usulni muallif qo'llagan texnik vosita sifatida tushunish mumkin. Masalan, Halimaxonimning "Endi ket" she'rining sarlavhasiyoq taqiq va qat'iy buyruq ma'nosini anglatadi va har bandning oxirgi satri sifatida takrorlanadi, bunday konstruksiya orqali ifoda zalvorining yanada oshirilganini kuzatish mumkin:

Endi ket!

Kutdirding, yomon kutdirding,

Hijron azobini shavq-la yutdirding.

Yiqildim. Boshimda ustuvor turding.

Endi ket!

Yarim ishq va yarim umid bilan kutgan lirik qahramon uchun tilanib-tilanib to'kilgandan keyin non kerak emas, chanqab-chanqab yiqilgandan keyin u uchun ummon suvi ortiqcha go'yo. Shoira: "**Bir-bir sinib bitdi qovurg'alarim**" tarzida hasbi hol qilar ekan, yakuniy qarorni ham buyruq gap konstruksiyasi orqali so'nggi bandda e'lon qiladi, ammo endi bu buyruq gap qat'iy taqiqni yoki buyruqni emas, maslahat ma'nosini ifodalaydi, ammo bu maslahatda lirik qahramon hisoblanmish ayol ko'nglining bor ginasi-yu kuni yaqqol seziladiki, bu tuyg'uni o'qirman ham bevosita yuqtirib oladi: "**Endi kimga borsang vaqtida borgin, Endi... Ket!**" She'ning dastlabki uch bandida "Endi ket" buyrug'ining hech ikkilanmasdan berilganini sezsak, oxirgi banddagi "endi" so'zidan keyin qo'yilgan ko'p nuqta tinish belgisi ham o'z zimmasiga katta vazifani olganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni kuchli va chuqur xo'rsiniqni, bir qarorga kelishdan oldingi taraddudni, qandaydir afsuslanish kabi tuyg'ularni shoira so'zlar bilan emas, birgina punktuatsion belgi orqali bera olgan deya olamiz.

Halima **Xudoyberdiyevaning** aksariyat she'rlarida eng kuchli motivatsiyalar buyruq gaplar orqali berilishini sezish mumkin:

Ruhim, yulduz, ko'kka bog'lan,

Yulduz – faqat xayolmas.

Ulug'bekday bitta o'g'lon

Tug'olmagan ayolmas.

Ushbu satrlarda shoira o'z ruhiga murojaat qilar ekan, ayolning eng asosiy missiyasi daholarni tarbiyalash ekanligini uqtiradi, jamiyatga mard ko'ringan ayol emas, Jaloliddindek mardlarni, Navoiydek, Ulug'bekdek daholarni tug'ib beradigan ayollar kerakligini, ana shundaylargina mard hisoblanishini uqtiradi. Agar buyruq gaplar tarkibida undalma ishtirok ettirilsa, kommunikativlikning yuqori darajasi ko'zga tashlanishini kuzatamiz. Chunki bunday gap qurilishida tinglovchiga, yoki kitobxonga bevosita ta'sir etish nazarda tutiladi. Ushbu she'rdagi "Ruhim" undalmasi ana shu kommunikativlikka xizmat qilgan, ya'ni lirik qahramon o'ziga – o'z ruhiga murojaat orqali lingvistik jihatdan har uchala shaxsga – hammaga murojaat qilgan. "*Tabibim, qolma kech, qolma kech, bir lahza kifoya o'lmoqqa*" misralaridagi undalma muloqot va murojaatni ifodalasa, yalinish ohangidagi buyruq gap esa kuchli emotsiyani ham ifodalay olganligi bilan xarakterlidir. Shoira "Bir lahza" deb nomlangan ushbu she'rda vaqt qadrini, kutishning og'irligini so'zlar ekan, go'dakning bir lahza bo'lsa ham ertaroq tilga kirishini, bog'ning sal ertaroq gullashini, toychoqning tezroq saman bo'lib **etishini** qattiq istaydi va "*Yetib kel, tutashdim men o'tga, bir lahza gullash yo*

ajalim...” deya lahzaning ahamiyatini, lirik qahramonning emotsiyasini buyruq gap orqali ifodalaydi. Buyruq gaplar kesimining shaxs-son kategoriyasi ham gap intonatsiyasiga sezilarli ta’sir qila olishi haqida tilshunos olimlar A. G’ulomov va M. Asqarovalar, jumladan, shunday deydi: “Kesim birinchi shaxsni ko’rsatuvchi istak maylida bo’lganda istak-qat’iylik (birlikda), ishni bajarishga boshqalarni ham undash (ko’plikda) kabi ma’nolar ifodalanadi”³. Shoiraning “Sog’inish” she’ridan olingan ushbu misralardagi -ayin qo’shimchasi orqali istak-qat’iylik ma’nosi ifodalangan: “*Aylanayin ona Yer-yey, bir boshog’ing bo’layin, Bir boshog ne, sen suyansang, suyanch tog’ing bo’layin*”. Ijodkorning quyidagi misralaridagi

-aylik qo’shimchasi esa ko’plikda qo’llanib ishni birga bajarishga undash ma’nosini yuzaga keltirgan: *Men o’tkinchi, o’tkinchiga g’animat diydormisan, Qani quchoqlashaylik bir, ona Yerim bormisan!* Ushbu misralardagi “Qani quchoqlashaylik bir” buyruq gapidagi she’riy nutq tempi, nutq melodikasi alohida ifodalilikni, ya’ni samimiyat tuyg’usini bo’rttirgan.

Buyruq gaplarning turli yo’l va vositalar bilan namoyon bo’lishini hisobga olib, shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodi namunalari misolida ushbu jihatni klassifikatsiya (tasnif) qildik:

I. Gap tarkibidagi kesimning buyruq-istak maylida kelishi:

1. I shaxs: -ay, (-y) ayin, (-yin), aylik, (-ylik) qo’shimchalari orqali hosil qilingan buyruq gaplar:

Uchirding-u she’r otida,

Ko’p sir ko’rdim turk zotida.

Jon beray ziyoratida

Yassaviyning Ka’basin ber.

Lingvistik jihatdan Halima Xudoyberdievaning “Bir kun yashay” nomli ushbu she’rining deyarli har bir satri buyruq gap shaklida bo’lib, bu o’rinda shoira Ollohga murojaat qilib, Qurbonjon Dodhoning o’z qavmiga bo’lgan vafosini, Anbar onaning oddiygina kapasini, Mohlaroyim Nodiraning isini tuymoq uchun uning yopingan ko’rparasini, Mashrabning erkin olgan bir nafasini so’rar ekan, buyruq gaplardan unumli foydalanganini kuzatamiz. Bunday usulni tanlashdagi asosiy pozitsiya nutq xarakteristikasidir. Ya’ni lirik qahramon nutqi munojot tarzida ekanligini ham sabablardan biri sifatida ko’rsatish mumkin. **Yoki** shoiraning xalqona usulda bitilgan “Sarson oy” nomli she’ridan olingan ushbu parchaga diqqat qilaylik:

Xudoyim-yey, xudoyim,

Ko’p bo’ldi-ku xatoyim.

Ko’kingdan joy bermasang,

Yerlaringda yotoyin.

³ A. G’ulomov, M. Asqarova Hozirgi o’zbek adabiy tili. Sintaksis. O’qituvchi. T.- 1987.69-bet

Oxirgi jumladagi **-oyin** qo'shimchasi II shaxs birlikdagi buyruq mayli ko'rsatkichi **-ayin** qo'shimchasining varianti hisoblanadi. Agar shu o'rinda

-ayin qo'shimchasining o'zi qo'llanganda "xatoyim", xudoyim" so'zlariga nisbatan qofiyadoshlik **yo'qolardi**, bundan tashqari, jumlaning "yerlaringda yotoyin" tarzida qo'llanishi hissiy- **estetik** ta'sirning batafsilroq idrok etilishiga ko'mak bergan. Bunday misollarni shoironing ijodiy laboratoriyasida ko'plab uchratish mumkin: "Ko'rgan kechirganim daryoga soldim, O'lsam ayrilmasdan o'**lay** iymondan", Yelim, seni mute ko'rsam, Ko'zdan qol**ay**, ko'zim kuysin.."

2. II shaxs qo'shimchalari **-gin, -ing (-ng)** qo'shimchalari bilan hosil qilingan buyruq gaplar:

*O'g'lim, ko'z yoshing art, so'zimni uq**qin**,
Menam "alp tug'dim" deb ko'krak kerayin.
YOsh to'ksang ozodlik uchun yosh to'**kkin**,
Yig'lasang "Vatan" deb yig'la ko'rayin.*

Ushbu satrlarda **-gin** II shaxs buyruq-istak mayli qo'shimchasining fonetik o'zgarishga uchrab, **-kin, -qin** variantiga almashganini ko'ramiz. Shoraning "Ay**ting**, ay**ting**, kulli o'tgan azizlar, Nechun ayol ko'ngli doim zor keldi", Kel**ing**, men g'arq bo'lmay kel**ing**, ayrilmayin o'zdanam...", Silking**in**, o'zingda bir na'ra uyg'ot", "" kabi misralarida ham II shaxs birlik qo'shimchalarining ifodalanishida turli ma'no ottenkalarini ko'rish mumkin. Ushbu grammatik vosita goh yolvorish, goh da'vat, goh iltijo ma'nolarini tashiganini kuzatamiz.

3. II shaxs birlikdagi buyruq ma'nosining nol shakl orqali ifodalanishi:

*Quyosh yig'la, osmon aza **tut**,
Muhammadi ketdi o'zbekning....
G'aflat bosgan dunyo ko'zing **och**
Ketdi bizning Muhammadimiz.*

"Har lahzada **uyg'on!** har lahzada **o's!** **O'stir** xudo degan shu mamlakatni!", "...Va sening siringni o'shal qal'aning **Eng** xavfsiz **yeriga** ko'mib qo'yaman, Menga **ayt**", "Turk elimni shavqatingga **zor qilma**", "Oллоh, Oллоh, do'stlarimni **mor qilma**, "Iltijom shu: "Turkistonni **xor qilma**" kabi she'rga aylangan buyruq gaplardagi nol shakl II shaxs **-gin** qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Bunday vaziyatda fe'lning zamon va shaxs-son shakllarisiz kelishi buyruq ma'nosini yanada kuchliroq ifodalashiga guvoh bo'lamiz.

4. III Shaxs **-sin, -sinlar** ko'rsatkichlari orqali hosil bo'lgan buyruq gap shakllari:

Quyidagi misollardagi **-sin** qo'shimchasining qo'llanishiga e'tibor qilsak, gapdan anglashilgan harakatning maqsad obyektini turlicha ifodalayotganini kuzatamiz.

"Lablarining chetlaridan qon sizgan Bolachalar turavers**in** osilib...Unutganning kuys**in** ikki dunyosi" ushbu misoldagi **turaversin** so'zidagi **-sin** qo'shimchasi buyruq

ma'nosiga qorishiq holda kuchli kinoya ma'nosini ham ifodalaganligi diqqatni tortadi. "Unutganning ikki dunyosi kuysin" jumlasidagi **-sin** qo'shimchasi esa kuchli norozilikni ifodalayotganini kuzatish mumkin. "Qolaversa el zor, nochor, Manim shohlik kezim kuysin" misolida esa buyruq aralash afsus ma'nosini ilg'ash mumkin. "Er qizni olsa-yu, yurtini buzsa, Qiz sochidan qirqta ilon to'qisin". Bunday original-ohoriy fikrning noyobligi, avvalo, shoiraning shaxsiy intellekti, o'ziga xos dunyoqashga egaligi bilan ro'y bergan bo'lsa-da, bu **yerda** qo'llangan grammatik ko'rsatkichlarning ham o'rirliligini ta'kidlash lozim. Yuqoridagi misollardan farqli o'laroq bu jumlada qo'llangan **-sin** qo'shimchasi bevosita she'rdagi qiz obraziga qat'iy uqtirish ma'nosini ifodalaydi, ya'ni qiz botirni chorlab o'lanlar aytsa, ishqida kuyib yonsa, botir ham kelib qizga uylansa-yu, ammo qizning yurtini buzsa, vayron qilsa, u holda qizning sevgisi o'chga aylanishi shartligi, qirq o'rim sochi, yurtini buzganlar uchun qirq ilon bo'lishi lozimligi juda kuchli temp bilan ifodalab berilgan. Ayol uchun Vatan va muhabbat tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilganda, vatanni tanlash zaruriyat, muqaddas burch ekanligi nasihat orqali emas, bir kichik syujet orqali, qolaversa, buyruq konstruksiyasi vositasida o'qirmanga **yetkazilganligi** estetik ta'sirchanlikni qabartirgan.

5. **Kerak, darkor, shart kabi so'zlarning harakat nomi bilan birikib kelishi orqali ifodalangan buyruq gaplar.** Shoiraning quyidagi misralari mana shu holatga misol bo'la oladi:

Baland bir o't yongan ichimni

Men sovitib yashashim kerak.

Bu o'rinda harakat nomi va kerak so'zining yaxlitlik hosil qilishidan lirik qahramonning o'ziga o'zi buyruq berishi ma'nosini hamda shu bilan birga, shart bo'lgan voqelik ma'nosini ham anglash mumkin. Bunday parallel ifodaning yuzaga kelishi o'zbek tilining grammatik va stilistik imkoniyatlari kengligi ifodasidir:

O'z-o'zimga sarflab kuchimni,

Men ovutib yashashim kerak.

Shoiraning "Turkning tug'i erga og'a boshlasa gar, Halimani bu dunyodan o'tdi denglar", "Zarbi elning yovlarini Sindirmasa qalam sinsin", "O'limgacha o'zing tik ket, yo'llarda yer tishlama!" kabi satrlari butun millatning idroki va saviyasini uyg'otishga qaratilgan otashin lirik nutq bo'lib, juda keng diapozonga egadir. Bunday yuqori tempdagi chorlovni oddiy shaxsiy axborot deb qarab bo'lmaydi, Bu e'tiborsiz tinglash mumkin bo'lgan shunchaki oddiy nasihat ham emas. Shu o'zbek millati bilan g'ururlanish, o'zbekni hamisha tik va ozod ko'rish, Vatanni jon qadar asrash va sevish Halimaxonimning shu kabi she'rlarida akslanib, yolqinlanib turadi.

Umuman olganda, Halima Xudoyberdiyevaning so'z qo'llash mahoratini tadqiq qilish orqali o'zbek tilining betakrorligini yanada chuqurroq his qilish mumkin deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar. Sharq. – T. 2020.
2. Xudoyberdiyeva H. **Yo'ldadirman**. Sharq. – T. 2006.
3. **Yo'ldoshev**. M. Cho'lponning badiiy til mahorati (“Kecha va kunduz” misolida) filol. fan.nomz...dissertatsiyasi. – T., TAI. 2000.
4. **Yo'ldoshev** Q., **Yo'ldosheva** M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – B.461.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T., Fan, 2007.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: Fan, 2008.
7. Zadornova V.Ya. Slovesno-xudojestvennoe proizvedenie na raznix yazikax kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya. — Diss. . dokt. filol. nauk. -M., 1992. – S. 191.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 703.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 687.
10. G'ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. O'qituvchi. – T. 1987.